

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2026-YIL
IYUN/6-SON, IV-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

EPOKSID-DIAN VA FENOLFORMALDEGID GIBRID BOG'LOVCHISI ASOSIDA YUQORI YEYILISH VA KORROZIYABARDOSH ANTIFRIKSION QOPLAMALAR YARATISH	10
Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNI BOSHQARISH VA TARTIBGA SOLISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	16
Mamayusupova Dilovarxon, Maxmudaliyeva Manzuraxon, Toyirjonov Shokirjon	
FRANSUZ, RUS VA O'ZBEK TILLARI SPORT TURIZMI TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY TADQIQI.....	20
Ma'rupova Gulnoz	
МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОЦЕНКЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ХРАНЕНИЯ ПЛОДОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	24
Muratov Abdulaziz Uktamovich	
DIGITAL TRANSFORMATION AND EMERGING TRENDS IN INFORMATION TECHNOLOGY.....	29
Daminova Barno, Esmurodova Zarnigor, Boltayev Javohir, Kuziboyeva Lobar	
FRANSUZ, RUS VA O'ZBEK TILLARI SPORT TURIZMI TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI.....	34
Ma'rupova Gulnoz Umarjonovna	
MINTAQA IQTISODIY O'SISHIDA XIZMATLAR SOHASI TARKIBIY O'ZGARISHLARINING STATISTIK TAHLILI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA	38
Raximov Alisher Ibragimovich	
KREDIT SKORINGIDA XULQ-ATVOR OMILLARINI BAHOLASH: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY QO'LLANILISHI	45
BekmurodovAbbos Amiriddinovich	
ECONOMETRIC INVESTIGATION OF AGRICULTURAL PRODUCTION ACTIVITIES IN KARAKALPAKSTAN REPUBLIC.....	49
Makhambetova Uringul Reimbaevna	
GETEROKOMPOZIT POLIMER QOPLAMALAR SIRTINING SHAKLLANISHI VA ULARNING PAXTA TOLALARI SIFATIGA TA'SIRINI TADQIQ ETISH	55
Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich	
GRADIENT BOOSTING (XGBOOST) VA TEGISHLILIK FUNKSIYALARIGA TAYANGAN STATISTIK KLASSIFIKATSIYA USULINING SOLISHTIRMA BAHOLANISHI	62
Ergasheva Ma'mura Gayratovna	
QURILISH SOHASIDA KICHIK VA YIRIK BIZNES SUBYEKTLARI INTEGRATSIYASI SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	69
Axmedova Nilufar Shuxratovna	
LARAVEL PLATFORMASIDA NEYROTARMOQLARNI QO'LLASH ORQALI FOYDALANUVCHI XATTI-HARAKATLARINI BASHORAT QILISH VA TAVSIYA TIZIMLARINI YARATISH	74
Jo'rayev To'xtasin, Abdusattarov Odiljon, Boymatov Mexrojiddin, Maxkamov A'zimjon, Nabijonov Abduqodir	
BEHIND THE 30% TARGET: A CONCEPTUAL FRAMEWORK FOR WOMEN'S ACADEMIC LEADERSHIP IN UZBEK UNIVERSITIES	82
Farida Nishanova	
QURILISH SANOATIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH: NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR	87
Abdullayev Axror Jaxbarovich	
BALIQCILIKDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI	92
Iskandar Yunusov	



TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASHDAGI BANK KREDIT RISKLARINI PASAYTIRISH YO'LLARI.....	98
Toymuxamedov Ibrohim Rixsiboyevich	
KO'P KVARTIRALI UY-JOY FONDINI BOSHQARISHDA PROFESSIONAL XIZMAT KO'RSATISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI	108
Rahimov Qodir Ergashevich	
НИЗКОУГЛЕРОДНАЯ ЭНЕРГЕТИКА КАК НАПРАВЛЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА	115
Расулкулов Жамшидбек Акрамкулович	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNING MOHIYATI VA ULARNING PRINSIPLARI	124
Ubaydullayev Muxammadjon, Akbarov Diyorbek	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MEHMONXONA XIZMATLARINI AVTOMATLASHTIRISHNING IQTISODIY AFZALLIKLARI.....	128
Raxmonova Nigina Anvarovna	
EMPLOYEE WELL-BEING IN POST-REFORM UZBEKISTAN: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW AND RESEARCH AGENDA	132
Farida Nishanova	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MEKANIZMLARI.....	137
Inobatov Abror Boshlarovich	
REAL SEKTORNING INSTITUTSIONAL TARKIBI VA TRANSFORMATSIYA TENDENSIYALARI.....	144
Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi	
ОБЕСПЕЧЕНИЕ РОСТА ЭКОНОМИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЯ (НА ПРИМЕРЕ ФИРМЕННЫХ МАГАЗИНОВ «SAG EXPRESS»)	151
Мусаева Шоира Азимовна	
О'ZBEKISTONDA YALPI ICHKI MAHSULOT DINAMIKASINING ICHKI ISTE'MOLGA TA'SIRI	161
Djumayev Zayniddin Axmedovich	
О'ZBEKISTON TASHQI IQTISODIY FAOLIYATIDA KICHIK BIZNES O'RNINI OSHIRISHNING STATISTIK USULLARDAGI TAHLILI.....	166
Yadgarova Nigora Rixsulla qizi	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLARNI REAL VAQT REJIMIDA VIZUALIZATSIYA QILISH UCHUN ADAPTIVE M4 GEOMETRIK-PERSEPTUAL AGREGATSIYA ALGORITMI.....	170
Nuraliyev Faxriddin, Hotamov Farhod, Muxamedjonova Zuxra	
АЛГОРИТМ ОПТИМИЗАЦИИ ПРОПУСКНОЙ СПОСОБНОСТИ В РАЗВЕТВЛЁННЫХ ПАССИВНЫХ ОПТИЧЕСКИХ СЕТЯХ (PON).....	175
Киямов Рахматулло Рузиевич	
MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI ORQALI HUDUDLARNING INVESTITSION SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISH.....	180
Xolmurotova Diyoraxon, Xoliyorova Shoxista	



MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI ORQALI HUDUDLARNING INVESTITSION SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH

Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna

Renessans ta'lim universiteti

Iqtisodiyot kafedrası v.b. dotsenti, PhD

ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-2102-4522>

Xoliyorova Shoxista Qahramon qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Mehnat iqtisodiyoti” kafedrası assistenti

E-mail: shoxistaxoliyorova@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-3444-0960>

Annotatsiya. Mazkur maqolada hududlarning investitsion salohiyatini oshirishda marketing kommunikatsiyalarining o'рни va ahamiyati tahlil qilinadi. Hududiy marketing, investitsion jozibadorlik, hududiy brending, reklama, PR texnologiyalari hamda raqamli kommunikatsiya vositalarining investitsiyalarni jalb etishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, hududlarning raqobatbardoshligini oshirish, ijobiy investitsion imijni shakllantirish va investorlar bilan samarali muloqotni yo'lga qo'yish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda marketing kommunikatsiyalaridan samarali foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: marketing kommunikatsiyalari, investitsion salohiyat, hududiy marketing, investitsion jozibadorlik, hududiy brend, investorlar, raqamli marketing, PR.

Abstract. This article examines the role of marketing communications in enhancing the investment potential of territories. The study analyzes territorial marketing, investment attractiveness, place branding, advertising, public relations technologies, and digital communication tools as key mechanisms for attracting investments. Particular attention is paid to the formation of a positive investment image of regions and the development of effective communication with potential investors. The findings highlight the necessity of utilizing modern marketing communications to ensure sustainable regional economic growth and competitiveness.

Keywords: marketing communications, investment potential, territorial marketing, investment attractiveness, place branding, investors, digital marketing, public relations.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль маркетинговых коммуникаций в развитии инвестиционного потенциала территорий. Проанализированы вопросы территориального маркетинга, инвестиционной привлекательности, территориального брендинга, рекламы, PR-технологий и цифровых коммуникаций как инструментов привлечения инвестиций. Особое внимание уделено формированию положительного инвестиционного имиджа регионов и совершенствованию взаимодействия с потенциальными инвесторами. Результаты исследования подтверждают важность эффективного использования маркетинговых коммуникаций для обеспечения устойчивого социально-экономического развития территорий.

Ключевые слова: маркетинговые коммуникации, инвестиционный потенциал, территориальный маркетинг, инвестиционная привлекательность, брендинг территорий, инвесторы, цифровой маркетинг, PR.

KIRISH

Globalashuv sharoitida hududlar o'rtasida investitsiyalarni jalb etish bo'yicha raqobat muhiti faollashib bormoqda. Investorlar o'z mablag'larini joylashtirishda iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda hududning imiji, axborot ochiqligi va marketing kommunikatsiyalarining samaradorligiga ham katta e'tibor qaratmoqda. Shu sababli hududlarning investitsion salohiyatini rivojlantirishda marketing kommunikatsiyalari muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Marketing kommunikatsiyalari investorlarga hududning iqtisodiy imkoniyatlari, infratuzilmasi, resurslari va biznes yuritish uchun yaratilgan sharoitlar haqida aniq va ishonchli ma'lumot yetkazib berishni ta'minlaydi.



Jahon iqtisodiyotida globallashtirish jarayonlarining jadallashuvi hududlar o'rtasidagi raqobatni yanada kuchaytirmoqda. Bugungi kunda investitsiyalarni jalb qilish nafaqat davlat miqyosida, balki alohida hududlar darajasida ham muhim strategik vazifaga aylangan. Hududlarning iqtisodiy rivojlanishi, yangi ish o'rinlari yaratilishi, ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi va aholi turmush darajasining oshishi ko'p jihatdan investitsiyalar hajmiga bog'liq.

Shu sababli hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish va ularning imkoniyatlarini investorlar e'tiboriga yetkazishda marketing kommunikatsiyalarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Marketing kommunikatsiyalari investorlar bilan samarali aloqa o'rnatish, hududning afzalliklarini targ'ib qilish va ijobiy investitsion imij yaratish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Marketing kommunikatsiyalari, hududiy marketing va investitsion jozibadorlik masalalari bo'yicha ilmiy adabiyotlarda hududni investorlar uchun jozibador iqtisodiy makon sifatida shakllantirish muhim yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi. Xususan, P. Kotler va K. Keller marketing boshqaruvi nazariyasida kommunikatsiya vositalarining manfaatdor tomonlar ongida ijobiy tasavvur hosil qilishdagi rolini asoslab bergan. S. Rainisto hududiy marketingning muvaffaqiyat omillarini tahlil qilib, hudud imiji, aniq strategiya va maqsadli kommunikatsiyalar investitsiyalarni jalb etishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. S. Anholt esa hududiy branding va raqobatbardosh imijni shakllantirish orqali mamlakatlar, shaharlar va mintaqalarning xalqaro maydondagi mavqegini mustahkamlash mumkinligini ta'kidlaydi.

M. Porterning raqobat ustunligi nazariyasida hududlarning tabiiy resurslari, infratuzilmasi, mehnat salohiyati, moliyaviy muhiti va boshqaruv samaradorligi investitsion jozibadorlikni belgilovchi asosiy omillar sifatida talqin etiladi. Mavjud ilmiy yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, hududlarning investitsion salohiyatini oshirish faqat iqtisodiy resurslar mavjudligiga emas, balki ularni investorlar e'tiboriga samarali yetkazish, hududning ijobiy imijini shakllantirish va raqamli kommunikatsiya kanallaridan unumli foydalanishga ham bog'liq. Shu bois reklama, PR, hududiy branding, investitsion forumlar, ko'rgazmalar va raqamli marketing vositalaridan kompleks foydalanish hududlarning raqobatbardoshligini kuchaytirish hamda investitsiya oqimini faollashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda hududlarning investitsion salohiyatini rivojlantirishda marketing kommunikatsiyalarining o'rnini aniqlash maqsadida ilmiy adabiyotlar tahlili, taqqoslash, umumlashtirish va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida reklama, PR, hududiy branding, investitsion forumlar, ko'rgazmalar, investitsion portallar hamda raqamli marketing vositalarining hudud investitsion jozibadorligiga ta'siri o'rganildi. Natijada marketing kommunikatsiyalaridan kompleks foydalanish investorlar bilan samarali muloqotni shakllantirish, hudud imijini mustahkamlash va investitsion faollikni oshirishda muhim omil ekanligi asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hududlarning investitsion salohiyati va uning tarkibiy qismlari

Investitsion salohiyat hududning investitsiyalarni qabul qilish va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini ifodalaydi.

1-jadval
Hudud investitsion salohiyatining asosiy omillari¹

Omillar	Mazmuni
Tabiiy resurslar	Yer, suv, foydali qazilmalar
Mehnat resurslari	Malakali ishchi kuchi mavjudligi
Infratuzilma	Transport, energetika, logistika
Moliyaviy muhit	Kredit va investitsiya resurslari
Huquqiy muhit	Investorlar huquqlarining himoyasi
Marketing muhiti	Hududning imiji va targ'iboti

1 Manba: Muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar tahlili asosida tuzilgan.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, marketing muhiti investitsion salohiyatning muhim tarkibiy elementi hisoblanadi.

Marketing kommunikatsiyalarining investitsiyalarni jalb etishdagi o'rni

Marketing kommunikatsiyalari investorlar bilan samarali aloqalarni yo'lga qo'yishga xizmat qiladi. Ularning asosiy maqsadi hududning investitsion imkoniyatlarini keng targ'ib qilishdir.

2-jadval

Marketing kommunikatsiyalari vositalarining hududlarning investitsion salohiyatiga ta'siri²

Marketing kommunikatsiyasi vositasi	Asosiy vazifasi	Investitsion salohiyatga ta'siri	Kutilayotgan natija
Reklama	Hududning investitsion imkoniyatlarini targ'ib qilish	Investorlarning xabardorligini oshiradi	Investitsiya loyihalariga qiziqish ortadi
PR (Jamoatchilik bilan aloqalar)	Ijoiy imij va obro' yaratish	Investorlar ishonchini mustahkamlaydi	Hududning investitsion jozibadorligi oshadi
Hududiy brending	Hududning noyob afzalliklarini namoyish etish	Raqobatbardoshlikni kuchaytiradi	Xorijiy va mahalliy investitsiyalar hajmi ortadi
Raqamli marketing	Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot tarqatish	Keng auditoriyani qamrab oladi	Investorlarga tezkor ma'lumot yetkaziladi
Investitsion forumlar va ko'rgazmalar	Investorlar bilan bevosita muloqot o'rnatish	Hamkorlik aloqalarini rivojlantiradi	Yangi investitsion kelishuvlar tuziladi
Investitsion portallar	Investitsion loyihalar va imkoniyatlar haqida ma'lumot berish	Axborot ochiqligini ta'minlaydi	Qaror qabul qilish jarayoni soddalashadi
OAV bilan hamkorlik	Hudud muvaffaqiyatlarini ommalashtirish	Ijoiy investitsion muhitni shakllantiradi	Hududning xalqaro tan olinishi ortadi

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, marketing kommunikatsiyalarining barcha vositalari hududlarning investitsion salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, reklama va raqamli marketing investorlarning hudud haqidagi xabardorligini oshirsa, PR faoliyati va hududiy brending investitsion jozibadorlik hamda ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, investitsion forumlar, ko'rgazmalar va investitsion portallar investorlar bilan samarali muloqotni ta'minlab, yangi investitsion loyihalar va hamkorlik aloqalarining shakllanishiga zamin yaratadi. Natijada marketing kommunikatsiyalaridan kompleks va tizimli foydalanish hududlarning raqobatbardoshligini oshirish, investitsiyalar oqimini ko'paytirish hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

O'zbekistonda hududlarning investitsion salohiyatini rivojlantirish tajribasi

So'nggi yillarda O'zbekistonda investitsion muhitni yaxshilash va hududlar jozibadorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. Hududlarning investitsion pasportlari yaratilishi, xalqaro investitsion forumlarning tashkil etilishi, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatining kengaytirilishi marketing kommunikatsiyalarining amaliy natijalarini namoyon etmoqda.

Hududiy investitsion portallar orqali investorlar uchun quyidagi ma'lumotlar taqdim etilmoqda:

- investitsion loyihalar bazasi;
- mavjud bo'sh yer maydonlari;
- infratuzilma obyektlari;
- soliq va bojxona imtiyozlari;
- biznes yuritish shartlari.

Bu esa investorlarning qaror qabul qilish jarayonini soddalashtirib, investitsion faollikni oshirmoqda.

Muammo va istiqbollar

Hududlarning investitsion salohiyatini rivojlantirishda ayrim yo'nalishlarni yanada takomillashtirish zarurati mavjud. Jumladan:

- hududlarning xalqaro miqyosda targ'ibotini yanada kuchaytirish zarurati;
- raqamli kommunikatsiyalar imkoniyatlaridan samaraliroq foydalanish;
- investitsion axborotlarni muntazam yangilab borish zarurati;
- hududiy brending strategiyalarini yanada takomillashtirish.

2 **Manba:** Muallif tomonidan marketing kommunikatsiyalari va hududiy investitsion rivojlanish nazariyalari asosida tuzilgan.



Kelgusida sun'iy intellekt, Big Data texnologiyalari, raqamli marketing vositalari va xalqaro PR kampaniyalaridan keng foydalanish ushbu yo'nalishlarda ijobiy natijalarga erishishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, marketing kommunikatsiyalari hududlarning investitsion salohiyatini rivojlantirish va ularning investitsion jozibadorligini oshirishda muhim strategik vosita hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda hududlar o'rtasidagi raqobat kuchayib borayotganligi sababli mavjud iqtisodiy resurslar va imkoniyatlarni investorlarga samarali yetkazish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan, marketing kommunikatsiyalari hududning iqtisodiy afzalliklari, investitsion imkoniyatlari va rivojlanish istiqbollari targ'ib qilishning samarali mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

Maqolada ko'rib chiqilgan marketing kommunikatsiyalarining asosiy vositalari — reklama, jamoatchilik bilan aloqalar (PR), hududiy branding, investitsion forumlar, ko'rgazmalar hamda raqamli marketing texnologiyalari investorlar bilan samarali muloqotni ta'minlashga xizmat qilishi aniqlandi. Ayniqsa, raqamli kommunikatsiyalar va internet texnologiyalarining rivojlanishi hududlarning investitsion imkoniyatlarini xalqaro miqyosda keng targ'ib qilish imkoniyatlarini yaratmoqda. Bu esa investitsion axborotlarning tezkorligi, ochiqligi va qulayligini ta'minlab, investorlarning qaror qabul qilish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, marketing kommunikatsiyalaridan kompleks va tizimli foydalanish hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish, xorijiy va mahalliy investitsiyalar hajmini ko'paytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. Shu sababli hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda marketing kommunikatsiyalarini takomillashtirish va innovatsion kommunikatsion texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Kotler, P., Keller, K. L. *Marketing Management*. 15th ed. Pearson Education, 2016.
2. Rainisto, S. K. *Success Factors of Place Marketing: A Study of Place Marketing Practices in Northern Europe and the United States*. Doctoral dissertation. Helsinki University of Technology, Institute of Strategy and International Business, 2003.
3. Anholt, S. *Competitive Identity: The New Brand Management for Nations, Cities and Regions*. London: Palgrave Macmillan, 2007.
4. Porter, M. E. *The Competitive Advantage of Nations*. New York: Free Press, 1990.
5. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda O'RQ-598-son "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-4664142>
6. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi Investitsiyalarni jalb qilish agentligi. *Invest Uzbekistan* investitsion portali materiallari.
7. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. Hududlarning investitsion imkoniyatlari, investitsion loyihalar va investorlar uchun axborot materiallari.
8. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Hududlar kesimidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish hamda investitsion faoliyat bo'yicha statistik ma'lumotlar. Elektron manba: stat.uz.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100